

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BERDIBEKOVA HULKAR MAVLONOVNA

FALSAFAGA OID TERMINLARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Jizzax – 2025

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Berdibekova Hulkar Mavlonovna

Falsafaga oid terminlarning leksikografik talqini 3

Бердибекова Хулкар Мавлоновна

Лексикографическая интерпретация философских терминов..... 23

Berdibekova Hulkar Mavlonovna

Lexicographic interpretation of philosophical terms..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BERDIBEKOVA HULKAR MAVLONOVNA

FALSAFAGA OID TERMINLARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Jizzax – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil13999 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (jdpu.uz)da va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jumanazarova Guljahon Umirzakovna
filologiya fanlari doktori, professor

Ubaydullayeva Maftuna Azamatovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD 03.04.06.2020.Fil.113.02 raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil «26» 12 kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-73; faks: (872) 226-46-56; e-mail: jspi_info@mail.uz Jizzax davlat pedagogika universiteti. Bosh o'quv bino, 2-qavat, ma'ruzalar zali).

Dissertatsiya bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin («39»-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil:130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-73; faks: (872) 226-46-56).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «12» 12 kuni tarqatildi.
(2025-yil «12» 12 dagi 31 raqamli reyestr bayonnomasi).



A.A.Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.fanlari doktori, professor

N.N.Xadjimusaeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.Qosimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi filol.fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda xalqlar, millatlar, elatlar o'rtasidagi ilm-fan, texnika, diniy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va madaniy aloqalarning jadal rivojlanishi fanlararo integratsiyaning rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, tilshunoslikda terminologiyaning mustaqil yo'nalish sifatida taraqqiy etishiga turtki bo'ldi. Shuningdek, sohaga oid terminlarni tartibga solish, ularning izohli lug'atlarda berilishini va terminlarning statistik, genetik-etimologik, shakliy-struktur tavsifini mukammallashtirish ishlari o'zbek tilshunosligida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Jahon tilshunosligida terminologiya fani ilmiy sohalarda maxsus terminlarni o'rganish, yaratish va ularning ma'nolarini aniqlash bilan shug'ullanadigan fan bo'lganligi bois har bir fanning tili sifatida jadal rivojlanmoqda. O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab o'zbek terminologiyasi rus tili orqali o'zlashgan terminlar asosida rivojlanib, nafaqat, o'zbek tili leksikasini boyitdi, balki yurtimizda terminografiya, sohaviy terminologiyaga, bu sohalarning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishga va ko'plab tadqiqot ishlarining yuzaga kelishiga zamin yaratmoqda. O'zbek tili korpuslarini yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqish, kompyuter lingvistikasi yo'nalishida tadqiqotlar yaratish, terminologiyada falsafaga oid terminlarning alohida o'rganilishi va tahlilga tortilishi tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. Izohli lug'atlar va falsafaga oid lug'atlardagi falsafaga oid terminlarning leksikografik tahlilga tortilishi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda terminologiya sohasida salmoqli yutuqlar qo'lga kiritilgan bo'lib, terminologiya fani nafaqat soha terminlarini tartibga solish va asoslash, balki mutaxassislar o'rtasidagi aloqa samaradorligini oshiradi va bilimlarni samarali tarqatishga yordam beradi. Darhaqiqat, "o'zbek tilining mamlakatimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini oshirish, o'zbek tili ta'limini takomillashtirish, yoshlarni milliy hamda umuminsoniy an'ana, qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy ma'naviy merosidan g'ururlanish va ularni yanada boyitish ruhida tarbiyalash, jamiyatda o'zbek tiliga (davlat tiliga) hurmat-e'tibor va mehr-muhabbat muhitini shakllantirish, mamlakatimizda har bir fuqaroning davlat tilini bilishiga va buni burch va majburiyat sifatida his etishiga erishish"¹ ekan, sohalarga oid bilimlarni egallashning asosiy manbasi sifatida terminografiyaga oid tadqiqotlarga zarurat ortib boraveradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini

¹Mirziyoyev Sh.M. 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni. // <https://lex.uz/docs/-5058351>

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorlari va mazkur soha faoliyatiga tegishli boshqa me'yoriy-falsafiy hujjatlar ushbu dissertatsiya ishida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek adabiy tili leksikasi qonuniyatlari negizida shakllangan terminologik leksika tarixini qadimgi turkiy til (VII-X) terminologiyasi, eski turkiy til (XI-XIV) terminologiyasi, (XV-XX asr boshi) terminologiyasi, sho'rolar davri o'zbek tili terminologiyasi va istiqlool davri o'zbek tili terminologiyasi tarzida davrlashtirish salkam o'n to'rt asrlik vaqt mobaynida terminologik leksika tizimida intralingvistik va ekstralingvistik omillar negizida sodir bo'lgan jarayonlarni anglab yetish imkonini beradi². Demak, o'zbek tilshunosligida lug'atchilikka e'tibor, asosan, XI asrlardan boshlangan. Beruniyning "Saydana", M.Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asari shular jumlasidandir.

Jahon tilshunosligida mazkur tadqiqot mavzusi yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar sirasiga V.Gak, D.Lotte, A.Reformatskiy, E.Skoroxodov, A.Ufimseva, T.Yatsyuk, A.Pigolkinlarning ishlarida keltirilgan ilmiy va nazariy qarashlarni kiritish mumkin.

O'zbek tilida terminologiya masalalari M.Umarxo'jayev, X.Dadaboyev, I.Sadikova, S.Nurmatova, O.Tursunova, P.Nishonov, O.Ahmedov, H.Mirzaxmedova, S.Muhamedova, S.Mustafayevalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan³. Sohaviy terminlarning lingvistik tadqiqi bilan U.Tursunov⁴, N.Mamatov⁵, R.Doniyorov⁶, S.Akobirov⁷, D.Kadirbekova⁸, N.Martinova⁹, A.Adigeneyeva¹⁰,

² Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar, 2019. – B. 12.

³ Mustafayeva S.Xitoycha-o'zbekcha tilshunoslik terminlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi, 2014. – B. 111. Muhamedova S. va mualliflar jamoasi. Bank-moliya terminlarining o'zbek tilidagi izohli lug'ati. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – B. 157.

⁴ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1975. – Б. 260.

⁵ Маматов Н. Ўзбек пахтачилик терминлари луғатини тузиш юзасидан баъзи мулоҳазалар. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1963. №3. – Б. 51-55.

⁶ Данияров Р. Техническая терминология узбекского языка на современном этапе. Дисс. д-ра филол. наук. – Т., 1988. – Б. 336.

⁷ Ақобиров С. Тил ва терминология. – Тошкент, 1968. – Б. 39. Ақобиров С. Терминология ишининг мазмуни ва вазифалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1964. №3. – Б. 31-39.

⁸ Кадирбекова Д. Инглиз ва ўзбек тилларида ахборот технологиялари терминологиясининг лингвистик хусусиятлари. Монография. – Тошкент: Фан ва технология, 2016. – Б. 128.

⁹ Мартынова Н. Роль терминологической лексики в формировании коммуникативной компетенции специалиста // Общество и человек. – 2014, №1 (7). – С.67-72.

D.Kamchibekova, O.Ahmedov, P.Nishonov¹¹, X.Paluanovalar shug‘ullanishgan. S.Usmonov¹², I.Pardayeva¹³, O.Po‘latova¹⁴, Q.Hurramov, H.Yodgorov, A.Qosimov, O.Qurbonov, Z.Mirahmedova¹⁵ kabi olimlarning tadqiqotlarida ham sohaviy terminologik sistemalar tahlil qilinib, lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan.

Mashhur yunon olimi Aristotel falsafani “fanlar malikasi”, qolgan fanlar uning kanizaklari sifatida falsafaga xizmat qilishini, unga biror so‘z aytoymasligini ta’kidlaydi. Shunday ekan, falsafa har qanday fanning metodologik asosini tashkil etadi. Zero, bilim o‘zlikni anglash va olamni bilishdan boshlanadi. Chunonchi, falsafiy terminlarning izohli lug‘atlarda berilishi va tavsifini takomillashtirish tilshunoslikning muhim masalasi bo‘lib qolmoqda. Yurtimizda faylasuf olimlarimiz tomonidan falsafaga oid terminlarni o‘zida jamlagan bir qancha yirik tadqiqotlar ishlari yuzaga keldi. Jumladan, “Falsafada atama va tushunchalar lug‘ati”¹⁶, “Falsafa. Qomusiy lug‘at”¹⁷, “Falsafa. Ensiklopedik lug‘at”¹⁸ kabi lug‘atlar shular jumlasidandir. Shu bilan bir qatorda tilshunos K.Karimov¹⁹ ham xususiy fan terminlarini tasniflash va leksikografik tavsiflash asoslarini falsafiy terminlar misolida ko‘rib chiqqan.

Dunyo tilshunosligida falsafaga oid terminlar tadqiqi M.Komilov²⁰, N.V.Kozlovskaya²¹ kabi bir qator mutaxassislar tomonidan batafsil o‘rganilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, ma’lum sohaga oid so‘zlar terminologik sistemani tashkil qilishi uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- salmoqli miqdorda bo‘lishi;
- umumis’temoldagi so‘zlar va boshqa sath terminlaridan farq qiluvchi xususiy ma’nolarga ega bo‘lishi va o‘z sohasi uchun muomala vositasi sifatida xizmat qilishi;
- ma’lum mavzuviy guruhlariga birikishi;
- mazkur sistemaning boshqa elementlari bilan paradigmatic munosabatga kirishishi;

¹⁰ Адигенеева А. Камчибекова Д. вопросу о преподавании профессиональных терминов в русском языке.. Elektron resurs: https://revolution.allbest.ru/pedagogics/00554873_0.html. Murojaat sanasi: 30.08.2021.

¹¹ Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг киёсий-типологик тадқиқи: Филол.фан.номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 26.

¹² Усмонов С. Гиппологическая терминология современного узбекского языка. – Тошкент: Адолат, 1993. – Б. 141.

¹³ Пардаева И. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси. Филол.фан.номз...дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – Б. 27.

¹⁴ Пулатова О. Истоки формирования и дальнейшего развития терминологии танцевального искусства узбекского языка. Филол.наук.док...дисс.автореф. – Тошкент, 1992. – С. 23.

¹⁵ Мирахмедова З. Ўзбек тилининг анатомик терминологияси. Филол.фан.номз...дисс. автореф. – Тошкент, 1986. – Б. 27.

¹⁶ <https://myneato.ru/uz/slovar-terminov-i-ponyatii-po-filosofii-slovar-filosofskih-terminov/>

¹⁷ Фалсафа. Қомусий луғат. – Тошкент, 2004. – Б. 491.

¹⁸ Абдуллаева М. Фалсафа. Энциклопедик луғат. – Тошкент, 2010. – Б. 345.

¹⁹ Karimov K. Xususiy fan terminlarini tasniflash va leksikografik tavsiflash asoslari (falsafiy terminlar misolida). Filol.fan.fals.dok. diss...avtoref. – Andijon. 2023. – B. 23.

²⁰ Комилов М. Структурно-семантический анализ философских терминов в таджикском и английском языках: Филол.наук.док...дисс.автореф. – Душанбе, 2020. – С. 29.

²¹ Козловская Н. Язык русской религиозной философии: от текста к термину и от термина к тексту. – Санкт-Петербург, 2018. – С. 462.

–umumiy til sistemasi va boshqa terminologik sistema elementlari bilan munosabatlarga kirishishi;

–soha terminlarini shakllantirgan va taraqqiy qildiruvchi usul va manbalarga ega bo‘lishi lozim.

Tadqiqot obyekti qilib tanlangan falsafiy terminlar mana shu talablarga to‘liq javob bera oladi. Lekin terminlarning o‘rganilishi tarixida falsafaga oid terminlarning maxsus tadqiqot obyekti bo‘lganini kuzatmadik²². Shunga ko‘ra o‘zbek tilidagi falsafaga oid terminlarni tasniflash va leksikografik tadqiqi maxsus monografik tadqiqot sifatida o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Jizzax davlat pedagogika universitetida o‘rganilayotgan “O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari: til ta’limida axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, raqobatbardosh professional pedagog kadrlarni tayyorlashga qaratilgan kompleks, integratsiyalashgan tadqiqotlar” mavzusidagi istiqbolli rejasi tarkibiga kiradi.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tilining izohli lug‘atlari va “Falsafa ensiklopedik lug‘ati”da keltirilgan falsafaga oid terminlarni leksikografik jihatdan tadqiq qilish va terminlar tavsifini mukammallashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek tilining izohli lug‘atlaridagi falsafaga oid terminlarni ajratib olish va “Falsafa ensiklopedik lug‘ati”dagi falsafaga oid terminlarni ma’noviy guruhlarga bo‘lib tasniflash;

falsafaga oidlikni ifodalovchi leksik ishorali terminlarni leksikografik jihatdan tadqiq qilish va statistik, genetik-etimologik, shakliy-struktur tavsifini mukammallashtirish;

tahlil natijasida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan terminologik lug‘atni takomillashtirishga xizmat qiluvchi yo‘nalish va takliflar berish;

o‘zbek tili leksikasini boyitish maqsadida falsafaga oid terminlarning izohli lug‘atini yaratish uchun terminlar va ularning izohini lug‘at tuzish mezonlariga, qonun-qoidalariga amal qilgan holda shakllantirish.

Tadqiqotning obyekti o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida (1981-yilda nashr etilgan II hamda 2008-, 2023-yillarda nashr etilgan V va VI jildli), 2010-yilda nashr etilgan “Falsafa ensiklopedik lug‘ati”dagi mavjud falsafaga oid (*fls.* ishorali) terminlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida va “Falsafa ensiklopedik lug‘ati”da mavjud falsafaga oid terminlarning tavsiflari, ko‘rgazmali misollar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda statistik tahlil, tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, komponent tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

²² Каримов К. Соҳага оид терминларнинг ўзбек тилшунослигидаги тадқиқи. // О‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – Toshkent, 2022. – B. 7.

falsafaga oid terminlarning leksikografik tizimi ilk bor kompleks tarzda o'rganilib, "O'zbek tilining izohli lug'ati" II (56 ta), V (86 ta) va VI (85 ta) jildlaridagi terminlar hamda "Falsafa ensiklopedik lug'ati"dagi 466 ta (shundan 94 tasi shaxs nomlari) terminlar statistik, geneologik (genetik-etimologik) va shakliy tuzilish jihati statistik tahlil orqali ochib berilgan;

falsafaga oid terminlar o'rtasidagi semantik munosabatlar: giper-giponimiya tizimidagi keng (giperonim) va tor (giponim) tushunchalar o'zaro munosabatiga asoslanishi aniqlanib, terminlarda ekvonimik munosabatlar, omonimlik va polifunksionallik xususiyatlari ilmiy asoslangan;

tadqiq etilayotgan o'zbek tilidagi falsafaga oid terminlar semantik ma'noviy guruhlarga ajratilib, leksemaning mazmun tomoni bo'lgan semema va semalar aniqlangan hamda ularning semantik xususiyatlari: aniqlik, kontekstga bog'liqlik kabi jihatlari dalillangan;

izohli lug'atlar asosida yangi terminologik lug'at tuzish uchun falsafiy terminlarni tanlash mezonlari ishlab chiqilib, "analogiya", "determinizm" kabi terminlarga asoslangan holda illyustrativ misollar berishning ilmiy-nazariy tamoyillari taklif qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yangi terminologik lug'atga leksikograf uchun murakkab sanalgan jarayon – lug'at uchun sohaviy terminologik birlikni tanlab olish jarayoni uchun aniq mezon ishlab chiqilib, til taraqqiyotidagi o'rni, adabiy tilni boyitishga xizmat qilishi amaliy jihatdan asoslangan;

lug'atda falsafaga oid terminlar berilishi bilan bog'liq texnik va semantik izohga oid xatoliklar tuzatish uchun ko'rsatib o'tilgan, terminlarning terminologiya taraqqiyotidagi o'rni umumlashtirilib nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

yangi falsafaga oid terminlar lug'atga kiritilish uchun shakllantirilgan, tadqiqotda to'plangan nazariy xulosalar, terminologik birliklar o'zbek terminologiya sohasini ilmiy jihatdan boyitishi ochib berilgan;

falsafaga oid termin uchun semantik teg kategoriyalari hamda modellarini tuzish algoritmi ishlab chiqilib, tadqiqotning amaliy jihatdan ahamiyatli ekanligi dalillangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalarga aloqadorligi, o'rganilgan materiallarning o'zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilishga yordam berganligi, ularning asosli ekanligi, metodologik mukammalligi, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da berilgan falsafaga oid birliklarni semantik teglash tamoyillarini yaratishda amalda isbotlangan manbalarga tayanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni boyitishda, amaliy samaradorligini oshirishda ilmiy-nazariy hamda amaliy manba hisoblanishi, o'zbek tilining falsafaga oid terminologiyasini rivojlantirishda, terminologiya sohasi va kompyuter lingvistikasi yo'nalishida tadqiqotlar yaratishda ham qimmatli ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalaridan o'zbek terminologiyasi bo'yicha yaratilgan darslik, o'quv qo'llanmalarni takomillashtirishda, o'zbek tilshunosligi bakalavr ta'lim yo'nalishida "O'zbek terminologiyasi", "Leksikografiya", "Korpus lingvistikasi", "Onomastika", "Davlat tilida ish yuritish" fanlarini tashkil etishda, akademik litseylar hamda ixtisoslashgan maktablar uchun o'zbek adabiy tilidan o'quv adabiyotlarini yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Falsafaga oid terminlarning leksikografik talqiniga doir olingan ilmiy xulosalar asosida:

falsafaga oid terminlarning leksikografik tizimi ilk bor kompleks tarzda o'rganilib, "O'zbek tilining izohli lug'ati" II (56 ta), V (86 ta) va VI (85 ta) jildlaridagi terminlar hamda "Falsafa ensiklopedik lug'ati"dagi 466 ta (shundan 94 tasi shaxs nomlari) terminlar statistik, geneologik (genetik-etimologik) va shakliy tuzilish jihatida statistik tahlil orqali ochib berilgan ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020–2023-yillarda amalga oshirilgan AM-F3-201908172-sonli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" amaliy grant loyihasida foydalanilgan (ToshDO'TAUning 2023-yil 04/1-1808-son ma'lumotnomasi). Natijada, amaliy grant loyihasining ilmiy-nazariy jihatdan boyitilishiga erishilgan;

falsafaga oid terminlar o'rtasidagi semantik munosabatlar: giper-giponimiya tizimidagi keng (giperonim) va tor (giponim) tushunchalar o'zaro munosabatiga asoslanishi aniqlanib, terminlarda ekvonimik munosabatlar, omonimlik va polifunksionallik xususiyatlari ilmiy asoslangan natijalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida bajarilgan IL-402104209 raqamli "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google Translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksioni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish" innovatsion grant loyihasida tatbiq etilgan (ToshDO'TAUning 2024-yil 04/1-2956-son ma'lumotnomasi). Natijada, korpus lingvistikasi uchun muhim bo'lgan terminlarning semantik va morfologik tuzilishini belgilashda nazariy asos bo'lib xizmat qilgan;

tadqiq etilayotgan o'zbek tilidagi falsafaga oid terminlar semantik ma'noviy guruhlarga ajratilib, leksemaning mazmun tomoni bo'lgan semema va semalar aniqlangan hamda ularning semantik xususiyatlari: aniqlik, kontekstga bog'liqlik kabi jihatlari dalillangan ilmiy xulosalari Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020–2023-yillarda amalga oshirilgan AM-F3-201908172-sonli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" amaliy grant loyihasida foydalanilgan (ToshDO'TAUning 2023-yil 04/1-1808-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'zbek tilidagi falsafaga oid terminlarning semantik munosabatlarini o'rganish bo'yicha amaliy yondashuvlar takomillashtirilgan;

izohli lug'atlar asosida yangi terminologik lug'at tuzish uchun falsafiy terminlarni tanlash mezonlari ishlab chiqilib, "analogiya", "determinizm" kabi terminlarga asoslangan holda illyustrativ misollar berishning ilmiy-nazariy tamoyillari taklif qilingan ilmiy natijalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Jizzax viloyati bo'limining hisobot yig'ilishlari va seminarlarida muhokama

qilinib, amaliy faoliyatda qo'llanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Jizzax viloyati bo'limining 2025-yil 23-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'zbek tilidagi falsafaga oid terminlar uchun semantik teg kategoriyalari va model tuzish algoritmlari ishlab chiqilib, ularning amaliy qo'llanish mexanizmi shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza shaklida bayon qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, ularning 4 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining tasarrufidagi ilmiy jurnallarda, 3 tasi xorijiy jurnallarda o'z ifodasini topdi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 143 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Falsafaga oid terminlarning statistik, geneologik (genetik-etimologik) va shakliy-struktur tavsifi”** deb nomlangan birinchi bobida, terminologiyaning ilmiy fan sifatidagi taraqqiyoti, uning asosiy tushunchasi bo'lgan termin izohi, izohli lug'at va “Falsafa ensiklopedik lug'at”larning yaratilishi hamda ularda o'z aksini topgan falsafaga oid terminlarning statistikasi, genetik-etimologik kelib chiqishi va shakliy-struktur tavsifi haqida so'z yuritiladi. Dastavval, “O'zbek tilining izohli lug'ati” ikki jildidan iborat bo'lib, 1981-yilda yaratilgan. Bu lug'atdan farqli ravishda ancha to'ldirilgan va tahrir qilingan holda nashr etilgan V jildli “O'zbek tilining izohli lug'ati” o'zbek tilshunosligi leksikografiya sohasida ulkan yutuq bo'ldi.

Tillarning o'zaro bir-biriga ta'siri, rivojlanishi, turli o'zgarishlarga uchrashi falsafaga oid terminlarni chetlab o'tmagan holda O'zbekiston Fanlar akademiyasi I.Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq instituti jonkuyar faylasuf olimlari tomonidan 2010-yilda o'zida 466 (shundan shaxs nomlari 94ta) ta falsafaga oid termini jamlagan, to'ldirilgan, qayta ishlangan yangi “Falsafa ensiklopedik lug'at”ini yaratdilar. Lug'at yaratishda ko'plab fikr-mulohazalar va yutuq va kamchiliklarni inobatga olgan holda, har bir maqolada jiddiy o'zgarishlar qilib, qayta ko'rib chiqdilar va yangidan yangi maqolalar bilan boyitdilar.

Xususan, V jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *fls.* ishorali terminlarning umumiy soni 86 tani, II jildli “O‘zbek tilining izohli” lug‘atida *filos.* ishorali terminlarning umumiy soni 56 tani, VI jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *fls.* ishorali terminlarning umumiy soni 85 tani tashkil etadi. 2010-yilda nashr etilgan “Falsafa ensiklopedik lug‘at”ida falsafaga oid terminlar 466 (shundan shaxs nomlari 94 ta) tani tashkil etadi.

II, V, VI jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va “Falsafa ensiklopedik lug‘at”ida mavjud falsafaga oid terminlarning morfologik xususiyatlariga ko‘ra quyidagi statistik ma’lumotlari keltiriladi:

1-jadval

№	So‘z turkumlari bo‘yicha	II tomli	V jildli	VI jildli	Falsafa ensiklopedik lug‘atda
1	Ot so‘z turkumi	50	78	77	362
	Shaxs nomlari	-	-	-	94
2	Sifat so‘z turkumi	5	6	6	-
3	Son so‘z turkumi	-	-	-	-
4	Fe‘l so‘z turkumi	-	-	-	1
	Harakat nomi	1	2	2	8
	Sifatdosh	-	-	-	-
	Ravishdosh	-	-	-	-
5	Olmosh so‘z turkumi	-	-	-	1
6	Ravish so‘z turkumi	-	-	-	-
Jami:		56	86	85	466

II, V va VI jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va “Falsafa ensiklopedik lug‘at”ida mavjud falsafaga oid terminlarning genetik-etimologik tahlili quyidagicha:

3-jadval

II jildli O‘zbek tilining izohli lug‘ati

№	Genetik-etimologik asosi	Miqdori	Foizda
1	Sof o‘zbekcha terminlar	4	5 %
2	Arab tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	17	31 %
3	Rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlarning termin sifatida berilishi	35	64 %
Jami		56	100 %

4-jadval

V jildli O‘zbek tilining izohli lug‘ati

№	Genetik-etimologik asosi	Miqdori	Foizda
1	Sof o‘zbekcha terminlar	11	12 %

2	Arab tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi	26	30 %
3	Yunon tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi	22	26 %
4	Lotin tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi	21	25 %
5	Fransuz tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi	6	7 %
Jami		86	100 %

5-jadval

VI jildli Oʻzbek tilining izohli lugʻati

№	Genetik-etimologik asosi	Miqdori	Foizda
1	Sof oʻzbekcha terminlar	10	12 %
2	Arab tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi	26	30 %
3	Yunon tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi	22	26 %
4	Lotin tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi	21	25 %
5	Fransuz tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi	6	7 %
Jami		85	100 %

6-jadval

Falsafa ensiklopedik lugʻat

№	Genetik-etimologik asosi	Miqdori	Foizda
1	Sof oʻzbekcha terminlar	113	37 %
2	Arab tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi	18	6 %
3	Yunon tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi	80	26 %
4	Lotin tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi	73	24 %
5	Fransuz tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi	7	2 %
6	Boshqa tillardan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi	16	5 %
	Sanskrit tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi	7	
	Ingliz tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi	4	

	termin sifatida berilishi		
	Rus tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi	2	
	Fors tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi	2	
	Xitoy tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi	1	
Jami		307	100 %

Oʻzbek tilining izohli lugʻatlarida berilgan *fls.* ishorali terminlar tuzilishi jihatidan sodda, gibrid, birikma terminlar guruhlariga birlashadi. “Falsafa ensiklopedik lugʻat”ida esa terminlar tuzilish jihatdan sodda, gibrid, birikma, qoʻshma terminlar (miqdor jihatdan kam) guruhini hosil qilgan. Oʻzbek tilining izohli lugʻatlarida va “Falsafa ensiklopedik lugʻat”ida mavhum ot yasovchi qoʻshimcha *-lik (-liq)* orqali yasalgan terminlar salmoqli oʻrinni egallaydi. Masalan: *borliq, xususiylik, goʻzallik, vahshiylik, abstraklik, xunuklik* va h.k. Bu shundan dalolatki, mavhum ot yasovchi *-lik (-liq)* qoʻshimchalari falsafaga oid terminlarni yasashda faol. Shuni alohida taʼkidlash kerakki, “Falsafa ensiklopedik lugʻat”da murakkab qoʻshimchalar orqali yasalgan yasama soʻzlar salmoqli oʻrin egallaydi. Masalan, *axborotlashtirish, maʼnaviyatsizlik, ongsizlik, umumlashtirish, fanshunolik, formallashtirish, shuhratparastlik, bogʻlanish, axborotlashgan jamiyat, jadidchilik, ideallashtirish, maʼrifatparvarlik, millatchilik, rivojlanish, tabiatshunoslik, uzluksizlik* va hokazolar. Terminologiya sohasida xalqaro terminelementlar fan va texnika sohasida yangi terminlar paydo qilish jarayonida muhim oʻrinni egallaydi. Bu esa, oʻz navbatida, davlatlararo aloqalarning rivojlanishini mustahkamlaydi. Quyida faol termin yasovchi morfemalarning falsafaga oid termin yasashdagi oʻrnini koʻrib chiqamiz: DE... [*lot. deus-xudo*] – oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning tarkibiy qismi boʻlib, Xudo maʼnosini bildiradi. Masalan: *deizm* [de...+...izm] – Xudoni olamni yaratuvchisi sifatida tan oluvchi, lekin uning tabiat va jamiyatning keyingi hayotidagi ishtirokini inkor etuvchi falsafiy taʼlimot; [de...+...ist] – deizm tarafdori.

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da mavjud falsafiy birliklarning koʻpchiligi ot soʻz turkumiga oid, oz miqdorda sifat, feʼl, soʻz turkumiga oid terminlarni uchratishimiz mumkin. Lugʻat tarkibida muayyan modellar boʻyicha tuzilgan juda kam miqdorda birikma terminlar mavjud, ular quyidagilar: sifat+ot (*subyektiv idealizm, sababiyat qonuni*), sifat+harakat nomi (*sababiy bogʻlanish*). “Falsafa ensiklopedik lugʻat”da bu kabi birikma terminlar salmogʻi oʻzbek tilining izohli lugʻatlariga qaraganda ancha yuqori. Ular quyidagilar: sifat+ot (*ayniyat qonuni, analitik falsafa, antrop tamoyili, axborotlashgan (sifatdosh) jamiyat, verifikasiya tamoyili, geografik muhit, germeneytik aylana, gipotetik mulohaza, global inqiroz va hokazolar*), harakat nomi+ot (*bilish metodi, bilish nazariyasi*), sifat+harakat nomi (*barqaror rivojlanish, ilmiy izlanish*), ot+ot (*fano va baqo*).

Shuningdek, “Oʻzbek tili izohli lugʻati”da falsafaga oid sodda tub terminlar ichida feʼlning vazifa shakllari bilan kelgan terminlar ham uchraydi: *sakra/sh* (miqdor oʻzgarishlarining sifat oʻzgarishlariga oʻtish jarayoni) terminologik maʼno

ifodalagan; *saqlani/sh* bu termin *saqlani/sh* shaklida materiyaning saqlanish qonuni ma'nosi bilan falsafa termini sifatida baholangan. Hozirgi o'zbek tilida, xususan, terminologiyada *-sh (-ish)* affiksi faollashib ketganligi ko'plab tadqiqotlarda keltirib o'tilgan. "Falsafa ensiklopedik lug'at"da esa *naturfalsafa (ot+ot)* va *psixozanaliz (ot+ot)* kabi qo'shma terminlar mavjud. Biroq birinchi qismi xalqaro terminelementdan yoki mustaqil qo'llanuvchi atributiv elementning qisqartmasidan, ikkinchi qismi esa mustaqil termindan tuzilgan terminlar ham o'zbek tilida qo'shma hisoblanmog'i kerak deydi²³. Masalan, *antezis*. Bizningcha, o'zbek tilida *anti* old qo'shimcha bo'lib, u boshqa so'zlar bilan birlashib, qarama-qarshi yoki salbiy ma'noni ifodalaydi. O'zbek tilining V jildli izohli lug'atida ham *anti* old qo'shimcha sifatida qayd etilgan. Shuning uchun *antitezis* falsafiy terminini qo'shma termin sifatida tahlil jarayoniga tortmadik.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "*Falsafaga oid terminlarning semantik xususiyatlari*" deb nomlangan faslida sememalarni semalarga ajratishda izohli lug'atlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bugungi kungacha leksik ma'noni ma'no bo'laklarga bo'lishda, sememalarni semalarga ajratishda "O'zbek tilining izohli lug'ati" muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. *Zamon* sememasi quyidagi semalardan iborat: "materiya (obyekt) holatlarning hamda hodisa (jarayon)larning izchil almashinish shakli", "davomlilik, takrorlanmaslik, qaytarilmaslik kabi umumiy xossalari ega bo'lgan vaqt", "so'z borayotgan payt; umuman vaqt, payt, davr, mahal". *Saqlanish* sememasi "o'z-o'zini himoya qilish", "o'z-o'zini muhofaza qilish" kabi semalardan tashkil topgan. *Sakrash* falsafiy terminining sememasi: *sakrash* – bu yuqoriga yoki pastga harakat qilish, harakatning kutilmagan yoki tezkor tarzda sodir bo'lishi. Falsafiy yoki psixologik ma'noda, odamning yoki jismoniy obyektning birdaniga kutilmaganda harakatga kelishi, masalan, yuqoriga sakrash yoki bir joydan boshqa joyga tez o'tish. Semalari (ma'no qatlamlari) *sakrash* – biror obyektning, odamning yuqoriga yoki pastga tezkor harakat qilishini anglatadi. Masalan, sportda va jismoniy mashg'ulotlarda yuqoriga yoki oldinga sakrash. Fizikada *sakrash* har qanday kutilmagan yoki tez sodir bo'ladigan harakatni anglatishi mumkin. Psixologiyada *sakrash* leksemasi insonning ruhiy holatining kutilmagan o'zgarishi, bir holatdan boshqasiga o'tishi. Masalan, baxtdan qayg'uga yoki xavotirdan tinchlikka o'tishi. Bu sema insonning hissiy holatlaridagi tezkor yoki kutilmagan o'zgarishini ifodalaydi. Ijtimoiy *sakrash*: ijtimoiy hayotda sakrash leksemasi kutilmagan ijtimoiy o'zgarish yoki holatdan boshqa holatga o'tish ma'nosida ishlatiladi. Masalan, ijtimoiy qatlamlarda yoki iqtisodiy jarayonlarda tezkor o'zgarish. *Go'zallik* terminining sememasi chiroylilik holatini aks ettiradi (latofat, estetik jihatdan yoqimlilik). Semalari quyidagilardan tashkil topadi: joziba, mukammallik, latofat, chiroy, yoqimlilik, estetiklik. *Yo'qlik* terminining sememasi mavjud emaslik holatini ifodalaydi. Semalari: bor bo'lmaslik, bo'shliq, noma'lumlikdir.

²³ Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мираҳмедова З., Саиднуъмонов А. Халқаро терминэлементларнинг изоҳли-иллюстратив луғати. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2020. – Б. 13.

Dissertatsiyaning “*Bir va ko‘p ma‘noli falsafaga oid terminlar tavsifi*” deb nomlangan navbatdagi faslida tilimizda har bir so‘z dastlab monosemik holatda bo‘ladi, keyinchalik vaqt o‘tishi bilan har xil omillar ta‘sirida ko‘p ma‘noli so‘zga aylana boradi. Bu xususiyat lug‘at boyligimizni tashkil etgan so‘zlarning salmoqli qismiga tegishli. Monosemiya hodisasi o‘zbek tilshunosligida *bir ma‘nolik* deb ham yuritiladi. Monosemantiklik – bu so‘zning faqat bitta ma‘noga ega bo‘lish holati. O‘zbek tilida falsafaga oid terminlarning semantik usul bilan paydo bo‘lishi o‘zbekcha ko‘pincha, o‘zlashma so‘zlar: arabcha, lotincha, yunoncha, fransuzcha so‘zlarni yangi falsafa termini ma‘nosida qo‘llashdan iborat. Bunga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin: Tilshunoslikka oid terminlar falsafa termini vazifasida kelishi mumkin: *analogiya, kategoriya, sifat, substrat, nisbiy, ikkilamchi, zamon*; iqtisod terminlari falsafa termini vazifasida: *bazis*; huquqshunoslik terminlari falsafa termini vazifasida: *analogiya, qonun*; matematik terminlar falsafa termini vazifasida: *miqdor, irratsional*; diniy terminlar falsafa termini vazifasida: *vahdat, fideizm, panteizm*.

Falsafaga oid terminlarning polisemantiklik holati bu holatda so‘zning barcha ma‘nolari falsafiy yo‘nalishlarida unga oid termin sifatida kelishi, ya‘ni so‘z avval falsafa termini sifatida shakllangan, keyinchalik esa falsafa ichida turli falsafiy maktablar, oqimlar va nazariyalarga ko‘ra har xil talqin qilinishi oqibatida falsafada omonimlik hodisasini yuzaga keltirgan. Falsafaga oid terminlar ko‘p ma‘nolikka ega bo‘lishi mumkin, bu ko‘p ma‘nolik ba‘zan omonimlikka yaqinlashib, terminlarning ma‘nosida farqni keltirib chiqaradi. Terminlar nafaqat turli terminosistemalarda, balki muayyan bitta terminosistemada ham ko‘p vazifalilik va ichki omonimlik xususiyatini aks ettirishi mumkin. Masalan, falsafa sohasida *dialektika* termini ham tabiat, kishilik jamiyati va tafakkur taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari haqidagi fan hamda tabiat va jamiyatning abadiy harakatlanib va o‘zgarib turuvchi ichki ziddiyatlari, qarama-qarshiliklarini ochish hamda bu ziddiyat va qarama-qarshiliklar o‘rtasidagi doimiy aloqadorlik va kurash mohiyatini aniqlashdan iborat falsafiy metod vazifasini bajaradi.

Bazis termini “asos, negiz”, “jamiyat taraqqiyotining ma‘lum tarixiy bosqichida yuzaga keladigan ishlab chiqarish munosabatlari yig‘indisi” va “yer yuzining ma‘lum joyidan juda aniq qilib bevosita o‘lchab olinadigan asosiy chiziq” kabi tushunchalarni bir vaqtni o‘zida nomlaydi. Ushbu tushunchalarning ma‘nosi o‘rtasida aloqadorlik uzilganligi uchun bu kabi terminlarni omonim termin sifatida keltirilish o‘rinlidir.

“*Falsafaga oid terminlarning leksik-semantik munosabatlarga ko‘ra talqini*” deb nomlangan faslida tilshunos olim I.Ermatov ta‘kidlaydi, shunisi xarakterliki, xalq xo‘jaligi, fan va texnika sohasiga oid tushunchalar termin bo‘lganligi uchun, bunday tizimda sinonimlik, variantlik yoki dubletlikning bo‘lishi lingvistik jihatdan maqbul hisoblanmaydi. Shunga qaramay, bu tizimni sinonimlik, dubletlikdan xoli deb bo‘lmaydi²⁴. Falsafada ko‘proq dublet terminlar uchraydi,

²⁴ Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар. Монография. – Тошкент: Тамаддун, 2022. – Б. 71.

chunki falsafiy terminlar turli tillardan o'zlashtirilgan va ilmiy muhitda turlicha shakllangan. Masalan, *substansiya – mohiyat, absolyut – mutlaq, ratsionalizm – aqlparastlik, dialektika – mantiqiy rivojlanish* va h.k. Falsafiy antonimiya, ko'pincha qarama-qarshi tushunchalar orqali dunyoni anglash va izohlashning dialektik usuli sifatida qaraladi. Ba'zi antonimlar to'liq qarama-qarshi ma'noni ifodalasa (*borliq-yo'qlik*), boshqalari esa nisbiy qarama-qarshilikni ifodalaydi (*haqiqat-yolg'on*).

Falsafaga oid terminlar o'rtasida giper-giponimiya vertikal aloqalarni ifodalovchi leksik-semantik munosabatdir. Kengroq tushunchalar (giperonimlar) asosiy yo'nalishlarni ifodalasa, torroq tushunchalar (giponimlar) ularning maxsus turlarini bildiradi. Falsafa terminlarini giper-giponim hodisasi asosida tahlil qilsak, *bilish* giperonim bo'lsa, giponimlari: *sezgi, idrok, tafakkur, dalil, haqiqat*. Falsafiy terminologiyada partonimiya hodisasi butun va uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Masalan, *falsafa* – butun, ya'ni borliq, bilim, qadriyat va tafakkur qonuniyatlarini o'rganadigan umumiy ilmiy yo'nalish. Leksik-semantik sathga xos graduonimik munosabatlar terminlar sistemasi lug'aviy birliklari (atamalari) munosabatlariga xos bo'lgan funksional semantik hodisadir. Graduonimiya darajalanish ham deb ataladi²⁵. Masalan, *sezgi – idrok – tushuncha – tafakkur*. Bu yerda oddiy hissiy bilishdan murakkab mavhum tafakkurgacha bo'lgan darajalar mavjud. Ekvonimiya – tilshunoslikda bir-biriga yaqin, o'xshash va bog'liq bo'lgan tushunchalarni ifodalovchi terminlar o'rtasidagi ma'nodoshlik munosabatidir. Giponimiya umumiy va xususiy tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlik bo'lsa, ekvonimiya esa bitta giperonimga bo'ysunuvchi, o'zaro teng maqomdagi leksik birliklar munosabatidir. Ekvonimiya hodisasini falsafiy terminlar misolida tahlil qilsak, *qadriyat* termini umumiy tushuncha bo'lib, *axloqiy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, estetik qadriyatlar* ekvonimlardir. *Harakat* termini giperonim bo'lib, ekvonimlari esa *ijtimoiy harakat, mexanik harakat, fizik harakatlardir*.

Dissertatsiyaning “**Falsafaga oid terminlarning tavsifini takomillashtirish vazifalari**” deb nomlangan uchinchi bobining “*Falsafaga oid terminlarning tavsifini takomillashtirish masalalari*” deb nomlangan faslida V jildli “O'zbek tilining izohli lug'ati”da *tasavvur* terminining 3 ma'nosi *fls. psxl.* leksik ishorasi bilan, idrok qilingan, his etilgan narsa yoki hodisaning kishi ongida aks etishi, gavdalanishi deb berilgan. Ammo psixologiyada *tasavvur* psixik jarayon hisoblanadi. Falsafada esa obrazli tafakkur hosil qilish usulidir. Bilish jarayonida idrok va tafakkurning o'rtasida yotuvchi bilish bosqichidir. *Tasavvur* termini ikki sohada bir ma'noni anglatuvchi termin emas. Psixologiyadagi va falsafadagi ma'nolari alohida-alohida berilishi zarur. II tomli “O'zbek tilining izohli lug'ati”dagi *borliq* terminining 2 ma'nosi bilan V jildli “O'zbek tilining izohli lug'ati”dagi *turmush* terminining 3 ma'nolari deyarli o'xshash. O'xshashlik shundaki, har ikkisi ham mavjudlik masalasiga tegishlidir. II jildli “O'zbek tilining izohli lug'ati”da *obyektiv* terminining *filos.* leksik ishorasi bilan berilgan ma'nosi:

²⁵ Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия. Филол.фан.номз...дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – Б. 21.

obyektiv voqelikni, ijtimoiy hayotdagi voqea, hodisa va faktlarni passiv, yuzaki, betarafona inkios etish, buzib talqin etish deb berilgan. V jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa *fls.* ma’nosi: ijtimoiy hayot voqea-hodisalarini qayd etish, ularning zarurligini ta’kidlash bilangina cheklanuvchi nuqtayi nazar deb berilgan. Ko‘rish mumkinki, *obyektiv* terminining falsafaga oid ma’nosi farqli holatda berilgan. “Falsafa ensiklopedik lug‘at”dan bu termin joy olmagan. V jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *ong* termining 4 ta ma’nosi berilgan bo‘lib, shundan falsafaga oid 2 ma’nosidan 4 ma’nosi: belgili ijtimoiy guruh vakili bo‘lgan kishilarning psixologik, siyosiy, falsafiy nuqtai nazarlari; diniy, badiiy qarashlari majmui deb berilgan ma’nosi II jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilmagan. V jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *fls.* ishorasi bilan berilgan *vahdat*, *volyuntarizm*, *refleksiya*, *plyuralizm*, *xususiylik*, *fenomen* singari falsafaga oid terminlar II tomli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da nafaqat falsafiy termin sifatida balki lug‘aviy birlik sifatida ham o‘z aksini topmagan.

Jumladan, V jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *bazis* terminining iqtisodiy ma’nosi ochib berilib, falsafiy terminlik ma’nosi ochib berilmagan. Buni quyidagi misol orqali dadillaymiz:

BAZIS [yun. basis – asos] 1 *iqt.* Asos, negiz. *q.* baza 1,2.

2 *fls. iqt.* Jamiyat taraqqiyotining ma’lum tarixiy bosqichida yuzaga keladigan ishlab chiqarish munosabatlari yig‘indisi. *Bazis jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi iqtisodiy tuzumdir.* Gazetadan.

3 *geod. astr.* Yer yuzining ma’lum joyidan juda aniq qilib bevosita o‘lchab olinadigan asosiy chiziq. *Jism kuzatilgan ikki nuqtani birlashtiruvchi to‘g‘ri chiziq kesmasi bazis deyiladi.* “Astronomiya”²⁶.

